

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining mediasavodxonligini rivojlantirish
ehtiyojlari va zarurati 8

U.R.Radjapov, K.B.Xakimdjanova

Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar
psixologiyasini va nutqini rivojlantirish uslublari 12

X.A.Yulbarsova

Loyihaviy ta'lim - bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning
amaliy-texnologik tizimi sifatida 16

Sh.A.Mamajonov

Oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalari 21

B.Q.Qurbanova

Ta'lim jarayonida hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogika – shaxsga yo'naltirilgan
ta'limning zamonaviy texnologiyalari 25

B.B.Musayev

Aholi salomatligini sog'lomlashtiruvchi dasturining umumiyo yo'nalishi 31

N.N.Azizov

Yuqori malakali kurashchilarning musobaqaoldi texnik-taktik tayyorgarligini boshqarishning
ilmiy-metodologik asoslari 35

O.Q.Xasanova

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida og'zaki xatolar bilan ishlash ko'nikmasini
shakllantirishning pedagogik asoslari 42

P.A.Xamrokulov, C.G.Gofurov

Fizicheskoe воспитание в системе дошкольного образования 48

R.N.Nazimov

O'qituvchining pedagogik texnikasi 52

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva

Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni 58

U.Q.Maqsdov, M.O.Yuldasheva

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini oshirishda o'yin va multimedia
vositalaridan foydalanish metodlari 62

O.M.Erkaboyev

Bolalarning harakat potentsialini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maqsadli
oshirish metodologiyasi 66

X.M.Ismoilova

Hozirgi davrda Farg'ona vodiysi oila qadriyatlariga ta'sir etuvchi destruktiv omillar 73

G.B.Karimova

O'qitish jarayonida faol va interaktiv ta'limning asosiy usullaridan foydalanish hamda ularni
qo'llash shakllari va maqsadlari 77

З.Б.Санакулова

Технология выполнения упражнений юными гимнастками с предметами 81

A.M.Nurmuhamedjanov

Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari 86

O.F.Qambarov

Kichik maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini tabaqlashtirish asosida sog'lom
turmush tarzini shakllantirish 93

I.Qirg'izov

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining Forobiy qarashlari asosida kasbiy-pedagogik
mahoratini rivojlantirish metodikasi 96

I.I.Tuyichiyeva

O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyatlar 100



УО'К: 37.018:78.071

**YOSHLAR MUSIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF YOUTH'S MUSICAL
THINKING**

Nurmuhamedjanov Ahmadjon Mahmudovich

Farg'onan davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasini dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda, ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirish ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik, milliy urf-odatlar, sharqona tarbiya va milliy san'atimiz, madaniyatimizni ulug'laydigan barkamol avlod qilib voyaga etkazishda san'at, xususan musiqaning inson ruhiga ta'siri haqida fikrlar bildirilgan.

Аннотация

В данной статье высказываются мысли о влиянии искусства, в частности музыки, на душу человека в современном обществе, особенно в условиях нового Узбекистана, в формировании музыкального мышления молодежи, воспитании ее в духе национальных ценностей, воспитании патриотизма, национальных традиций, восточного воспитания и воспитании гармоничного поколения, прославляющего наше национальное искусство и культуру.

Abstract

This article expresses thoughts on the influence of art, in particular music, on the human soul in modern society, especially in the conditions of new Uzbekistan, on the formation of musical thinking of young people, educating them in the spirit of national values, fostering patriotism, national traditions, oriental education and upbringing of a harmonious generation glorifying our national art and culture.

Kalit so'zlar: Orkestr, ansambl, bayramlar, musiqa, ko'rik-tanlovlar, shashmaqom, umuminsoniy qadriyatlar, jamoaviylik, ijtimoiylashuv, komillik.

Ключевые слова: Оркестр, ансамбль, праздники, музыка, театрализованные представления, шашмаком, общечеловеческие ценности, коллективность, социализация, совершенство.

Key words: Orchestra, ensemble, holidays, music, pageants, shashmakom, universal values, collectivity, socialization, perfection.

KIRISH

Musiqa san'atida o'zbek xalq cholg'ulari orkestrining o'ziga xos o'rni bo'lib, talaba-yoshlarni ma'nnaviy dunyoqarashini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning tarbiya vositasi sifatidagi ulkan ta'sirchan kuchi bugungi kunda mamlakatimizda kamol topayotgan yoshlarning badiiy-estetik tafakkuriga ta'siri masalasi dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Bu esa talaba-yoshlarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-ma'nnaviy shart-sharoitlarni yaratish, ularning har jihatdan kamol topishlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi "O'zbekiston yoshlari – 2025 konsepsiysi"[1] ni ishlab chiqarish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Bugungi kunda jamiyat ma'nnaviy yangilanish jarayonida yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishning ijtimoiy falsafiy taxlil qilish masalasi dolzarbligi bilan ajralib turibdi. Shu bois, Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"[2]gi qarorida ham aynan shu masalaga e'tibor qaratilgan. Zero, "Mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodga bezavol etkazish..."[3,140] oliy maqsadlarimizdan biri bo'lib qolishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Musiqa asarlari shunday ulkan tarbiyaviy ta'sir kuchiga egaki, musiqiy ohanglar silsilasida yashirinib yotgan obrazlar tinglovchining hayolida, ruhiy kechinmalari va tasavvurida qayta jonlanib, ma'nnaviy-axloqiy va estetik kamolotga erishishiga katta yordam beradi.

PEDAGOGIKA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, - "Sir emaski, hozirgi vaqtida aksariyat odamlar "mafcura" degan so'zga biroz hadiksirab qaraydi, uni demokratik jamiyatga begona, deb hisoblaydi. Lekin biz mafcura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston mafkurasi, avvalo, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi bo'ladi[4,280].

O'zbekistonda jamiyat hayotida yuz berayotgan keng miqyosli ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarni tasniflash orqali milliy merosimizdag'i xalq ijodiyoti va milliy qadriyatlarimizdan bo'lgan musiqiy merosimizni asrab- avaylash, yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishning ijtimoiy- falsafiy omillarini tadqiq qilish orqali yoshlar tarbiyasida musiqaning o'rmini o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida mamlakatimizda milliy manfaatlarga ustuvor darajada ahamiyat berilishi musiqiy ilmiga nisbatan munosabatlarni ijobiy tomoniga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy jamiyatda musiqaning ijtimoiy – madaniy jihatlari falsafiy adabiyotlarda shaxs aqliy qobiliyatlarini ifodalovchi musiqiy madaniyat tushunchasi sifatida talqin qilinmoqda. Yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari deganimizda bugungi kungacha musiqa madaniyat tushunchasini faqat san'atshunoslik fanlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa, endi bu holatni ijtimoiy-falsafiy tushunish, uni bir butun fenomen sifatida o'rganishni taqazo qilmoqda. Musiqiy tafakkur xususiyatini tushunishdan oldin madaniyat - ijtimoiy falsafiy kategoriya sifatida keng qamrovli tushuncha ekaniga urg'u berishimiz lozim. Madaniyat insonning ruhiy va aqliy olamining majmui bo'lib, barkamol insonni shakllantirishda, shaxsning ma'naviy-ma'rifiy darajasini rivojlantirishda katta o'r'in tutadi.

Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga etkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga bo'lgan munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi. Shu ma'noda, musiqa hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ta'sir kuchiga ega desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz deya ta'rif beradilar yurtboshimiz.

Xalq cholg'ulari Markaziy Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgan. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. Markaziy Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi mavsumiy bayramlarda xalq cholg'ularidan tashkil topgan ansambllar o'zlarining chiqishlari bilan qatnashganlar. Bunday ommaviy bayramlarda xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalar faol ishtirot etishgan.

Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va chindovul[5,623] kabi urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

O'rta va Sharq xalqlarining tarixiy madaniy aloqlari, jozibador Sharq ohanglarining tarovati va ta'sir kuchi hamda o'zbek musiqasining xorijiy sharq xalqlari musiqa an'analari bilan mushtarakligini nazarda tutgan holda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" kitobida Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to'xtalib, "Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g'azalu naqsh aytur erdilar. Va turku mo'g'ul, xitoyu arab va ajamdir har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi", degan ma'lumotni keltiradi.

Forobiy "Musiqa haqida risola" asarida musiqani uch turga ajratadi. Ulardan birinchisi insonga huzur-halovat baxsh etar ekan; ikkinchisi ehtiros uyg'otib, qalbni junbushga keltirar ekan; uchinchisi esa kishini o'nga toldirib, fikrlashga undar ekan[6,42-43].

Abu Ali Ibn Sino "Ash-Shifo" asari yakunida inson ma'naviyatini ifodalashda tovush va sezgilarning muhim ahamiyat kasb etishi haqida so'z yuritadi. Mutafakkirning fikriga ko'ra, inson sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan xususiyatlardan biri tovush hisoblanib, u o'ziga xos xush tomoni bilan ajralib turadi. Tovush ikki hil bo'ladi: birinchisini inson eshitganda lazzatlansa, ikkinchisini eshitgisi kelmay himoyalishga qulog'ini berikitishga o'tadi.

Musiqa – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, inson xissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi[7,145]. Musiqa madaniyati ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonning nafosat olamini

yuksaltiradigan, jamiyat axloqiy-ma'naviy hatti-harakatini tartibga soluvchi tushuncha bo'lib xizmat qiladi. "Har bir inson, - deb yozadi Ibn Sino, - ko'nglidagini boshqaga bildirish, boshqalarning ko'nglidagini esa o'zi bilishga muhtojdir. Shuning uchun ham inson bir-biri bilan o'rtoq bo'lib hayot kechirishga majburdir. Inson – madaniy tabiat, uning ma'nosini ham go'zallikka, jozibaga, madaniyatga tashnalikda namoyon bo'ladi. Yolg'izlikda madaniyat va maishatga na hojat, na imkon qoladi"[8,45]. Ibn Sinoga zamondosh bo'lgan suriyalik shoir va mutafakkir Al-Maariy "Risolatul-gufron" asarida rivoyatlar vositasida musiqaning inson xayotidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Musiqa dardni qochiradi, uyqu va lanjni yo'q qiladi. Rivoyatlar zamirida inson tuyg'ulariga, inson iste'dodiga, inson dahosiga buyuk hurmat borligini izhor etadi.

Tasavvuf ta'limotining yirik namoyandalaridan biri Zayniddin Muhammad G'azzoliy ham ma'naviy barkamol inson tarbiyasining muhim shartlaridan biri badiiy did, musiqiy sezgi ekanini ta'kidlaydi. Zayniddin Muhammad G'azzoliy tasavvuf ta'limoti, uning turli tariqatlari rivojida musiqa muhim o'rin tutishiga ishora qilgan. Zero, ko'pgina musiqiy risolalarda darveshlar o'yini alohida ta'kidlab o'tilgani bejiz emasligi aytib o'tiladi. Chunki, darveshona raqs – zikr tushish, jazbaga berilish ilohiy kayfiyat maqomiga etishishning muhim bosqichi hisoblanadi. So'fiylarning qadimdan ilohiy kayfiyat holatlariiga intilgani ma'lum. Bunday kayfiyatga asos bo'luvchi vosita esa musiqa bo'lgan. Manbalarda yozilishicha, juda ko'p shayxlar musiqa tinglashni odat tusiga kiritgan. Bunday odat samo, ya'ni eshitmoq, tinglamoq deb atalgan. Musiqa inson ruhiyati timsoli, go'zallik va joziba, ma'naviy hurlik ramzi o'laroq barcha zamonlarda ezgulikka xizmat qilib kelgan. Aflatunning shogirdi Arastu musiqaning yakka o'zi mustaqil soha bo'la olmaydi, u she'riyat va raqs bilan birga namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi. Lekin Arastu musiqa tushunchasini sekin-asta tabiiy tovushdan badiiy ohang darajasiga olib chiqadi va uni ruhning harakati deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga Arastu musiqani yana ijtimoiy hodisalar qatoriga qo'shdi. Uning fikricha, musiqa insonlarga hordiq chiqarish uchun xizmat qilib, bilim doirasi keng insonlar uchun intellektual mashg'ulot ham bo'la olishini ta'kidladi. Ayniqsa, "Aristotel tarbiyaning vositasi sifatida musiqaga katta ahamiyat beradi"[9,112].

Aslida bu yorug' olam bag'ridagi har bir hodisa zamirida musiqa borligi ayon. Zero, bu dunyo – harakat mahsuli. Musiqa esa bir maromdagi uyg'un harakatdir. Musiqa inson ruhiyatining so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan, nozik jihatlarini yuzaga chiqarish vositasidir. Shuning uchun buyuk faylasuflar musiqa san'ati xususiyatlarini teranroq o'rganishga, uning vositasida inson tabiatini chuqurroq anglab etishga harakat qilgan. Sharq mutafakkirlari bu borada ko'p tadqiqotlar olib borgan. Jumladan: mashhur sozanda Darveshali Changiy tabib Sulton Muhammad tavsiyasiga ko'ra diq degan dard bilan xastalangan bemorga chang chalib, uni darddan davolagan. Sharq falsafasida komil inson tarbiyasida musiqaning o'rni va ahamiyatiga alohida urg'u berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy falsafaning boshqa sohalari kabi musiqashunoslikni puxta egallagan. Abu Nasr Forobiy "Ihsoul-ulum" asarida musiqa ilmi qanday zarurat va ehtiyoj tufayli paydo bo'lgani xususida yozar ekan, uning ahloqiy – tarbiyaviy jihatlariga alohida to'xtaladi: "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, nomukammal xulqini mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqini muvozanatda saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa ruh ham so'nadi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ohanglar vositasida ruhni sog'aytirish asnosida aslida tana sog'aytiriladi; ruh esa bag'ridagi quvvat - energiyaning tartibga solinishi va o'z mohiyatiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi"[10,44].

Shu bois, ajdodlar tomonidan to'plangan musiqiy tajribalar muntazam ravishda boyib, takomillashib boradi. Talaba yoshlardagi ijobiy jihatlarni tarbiyalashda musiqaning sehridan unumli foydalanish, milliy kuy va qo'shiqlar orqali shaxsda o'z-o'ziga aniq va to'g'ri bera olish qobiliyatlarini o'stirish muhim rol o'ynaydi. Xalq kuy va qo'shiqlari asrlar osha avloddan-avlodga o'tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning o'y-fikrlari, dardi, orzusi, donishmandligini o'zida mujassamlashtiradi. O'zining an'anaviyligi, ommabopligi, oddiyligi va buyukligi, ta'sirchanligi, ko'plab badiiy, estetik tarbiya vositalarga egaligi bilan millatning sevimli san'at turiga aylangan. Xalq musiqasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish ma'naviy boy, intellektual barkamol shaxsni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Musiqashunos olimlar, mutafakkirlar, shoirlar musiqaning inson ongi va shuuriga ta'siri haqida juda ko'plab fikrlar aytib o'tishgan. XVI asr shoirlari va musiqashunoslari, shuningdek, musiqa ilmining bilimdonlaridan biri Najmiddin Kavkabiy Buxoriy o'zining Fors tilidagi "Risolai musiqiy" asarida ilmi musiqiy, o'n ikki maqom tizimiga oid nazariy tushunchalar berib, turli zARB-usullarning nomini keltirib ta'riflagan, kuyning amaliyotidagi

PEDAGOGIKA

hillari haqida ma'lumot beradi”[11,373]. Shuningdek, XVII asrning yana bir musiqashunos olimi, bastakor, sozanda, hofiz va shoir, tarixchi, musiqa ilmining nazariyotchisi darvish Ali Changiy Xuroson madaniyati markazlari bo'lgan Buxoro, Balx, Andijon, Kesh, Samarcand kabi shaharlarda yashab ijod etgan. Uning bir necha qasida, g'azal, ruboiliali hamda “Risolai musiqiy” asarlari bizgacha etib kelgan. Mazkur risola XVI-XVII asrlar musiqa san'ati va madaniyatining asosiy manbai sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega. “Fors tilidagi 12 bobdan iborat bu qo'lyozma Jomiy va Kavkabiy risolalari hamda Xusayn Oxun, Imom Kuliy Udiy, Zaytun G'ijjakiy kabi musiqa ustodlarining asarlaridan to'plangan ma'lumotlar asosida yozilgan. Shuningdek, muallif amir Xusrav Dehlaviyning musiqiy qarashlarini ham o'z asariga kiritgan”[12,200]. Asarda Movarounnahr va Xuroson musiqa arboblarining tarjimai holi va XVI-XVII asrlardagi musiqa hayoti, bastakorlik san'ati, musiqa sozlari, musiqiy nazariy va ijrochilik masalalari o'z ifodasini topgan.

XVII asrdan boshlab yaratilgan musiqa asarlarida biror hodisani tasvirlashda o'ziga xos mantiq, dramaturgik elementlar, insonda bir vaqtning o'zida nafaqat shodlik, balki ma'yuslik kayfiyatlarini paydo qilishga harakat ko'zga tashlanadi. Musiqa san'at sifatida e'tirof etilishida ijroning yuqori shakllari – sonata, konsert, simfoniya kabi turlari tobora rivoj topib, insonlarni xayot mazmuni to'g'risida falsafiy fikrlashga undashi orta boshladи. Shu bois, o'sha davrlardan hozirgacha musiqashunos va faylasuflar musiqaning sirli ohanglari qanday qilib murakkab g'oyalar va konsepsiyalarni ifoda etishiga qodirligi haqida bosh qotiradilar. Masalan, I.Kant uchun musiqa his-tuyg'ularning nozik o'yini bo'lib, kishi kayfiyatiga turli darajada ta'sir qiluvchi voqeа xolos. Shuning uchun u musiqani san'at sohalari orasida past o'ringa qo'yadi[13,78]. V.Gegel musiqani go'zallikni his qilishda ma'lum bosqich deb biladi. Uning aytishicha haykaltaroshlik me'morlikning ajralmas qismi bo'lganidek, musiqa ham biror bir tasvirni tovush orqali “chizadi”.

A.Shopengauer esa musiqa odamni o'ziga mahliyo qilib tinchlantiradi yoki ko'ngilni ochadi, lekin boshqa san'atlarda bo'lgani kabi unda g'oya yo'q, deb hisoblaydi[14,56]. M.Veberning fikricha, muhabbat odamlarga naqadar kerak bo'lsa, musiqa ham shunchalik kerak deb biladi. Shunday qilib, musiqa sirini aniqlash bo'yicha bildirilgan fikrlar hilma-hildir.

O'zbek musiqasining xorijiy Sharq xalqlari musiqa ijodiyoti bilan mushtarakligi, umumiylidizlari, buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zaxriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar va ma'rifatparvar allomalar tomonidan chuqur e'tirof etilgan. Bu haqda jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat o'zining “O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida quyidagilarni yozadi: “Bizning adabiyotimiz Sharq-islam adabiyotiga qanday bog'langan, qanday munosabatl ersa, musiqamiz ham Sharq-islam musiqasi bilan shunday munosabatdadir”.

Mustaqillik yillarda ulug' bobolarimizning ana shunday an'analarini davom ettirgan holda mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol etkazish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar, nufuzli xalqaro anjumanlar muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda”[15,140].

Musiqa asarlari shunday ulkan tarbiyaviy ta'sir kuchiga egaki, musiqiy ohanglar silsilasida yashirinib yotgan obrazlar tinglovchining hayolida, ichki ruhiy kechinmalari va tasavvurida qayta jonlanib, ma'naviy-axloqiy va estetik kamolotga erishishiga katta yordam beradi.

Musiqiy rivojlanish shaxsning umumiyl rivojlanishiga o'rnini hech narsa bilan bosa olmaydigan ta'sir ko'rsatadi: emotsiyonal (hissiy) soha shakllanadi, tafakkur takomillashadi, bola san'at va xayot go'zalligiga nisbatan sezgir bo'ladi. Musiqa bilan muntazam shug'ullanadigan insonlarda ijodiy tasavvur, oldindan his qilish, keng tafakkurga egalik singari ijodkorlik belgilari boshqalarga nisbatan rivojlangan bo'ladi.

Musiqiy tarbiya, musiqiy faoliyat estetik tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda etakchi o'r'in tutadigan yo'naliishlardan biri sanaladi.

Tadqiqodchi B.M.Teplov ta'kidlaganidek, go'zal xususiyatlari ko'ra musiqa emotsiyonal bilishga aylanadi va insonning, ayniqsa bolalikda, emotsiyonal his-tuyg'ulari rivoji uchun hech nima bilan tenglashtirib bo'lmaydigan imkoniyatlar yaratadi.

O'zbek xalqining o'zga xalqlar kabi o'zining milliy va boy musiqa madaniyati mavjud. Musiqa madaniyatimiz hozirgi zamonda yanada rivoj topib, boyib bormoqda hamda o'ziga xosligi yanada ortmoqda. Milliy musiqa san'atimizning rivojlanishi barcha xalqlar san'ati uchun xarakterli va bir-birini to'ldirish bilan taraqqiy etib boradi.

Ma'naviy boyliklarni keng miqyosda ayirboshlash milliy munosabatlar taraqqiyotining qonuni hamdir. Jahon miqyosida hech bir xalq ana shu jarayondan chetga chiqa olmaydi. Adabiyot va san'at kunlari, milliy teatrлar va konsert tashkilotlarining chet ellarga tashrifi, tasviriy san'at ko'rgazmalari, chet el adabiyotlarni yoki bizning adabiyotlarni o'zaro tarjima qilinishi va ijodiy, badiiy faoliyatning juda ko'p shakllari ma'naviy xayot jabhasidagi milliy munosabatlarni aks ettirganligini bildiradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash, unutilgan an'analarni keng ommalashtirish va ularni chuqr o'rganish uchun zarur sharoitlar yaratildi[16,3].

Yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda mumtoz, milliy kuy va qo'shiqlar ijrosini yoshlikdan ruhiyatiga singdirish ularning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim o'r'in tutadi. "Nega deganda, agar insonning qulog'i engil-elpi, tumtaqroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi uning ma'naviyat olamining soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas. Oxir oqibatda bunday odam -"Shashmaqom" ni ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi"[17,143].

NATIJA VA MUHOKAMA

Musiqa vositasida boshqa ta'sir etuvchi omillar (so'z, harakat va boshqalar) bilan berib bo'lmaydigan his, tuyg'ularni etkazish mumkin. Shu bois g'amgin, tushkunlikka tushgan kishining ko'nglini ko'tarishda og'zaki pand-nasihatga qaraganda mumtoz kuy, ta'sirli qo'shiqlar ancha maqsadli ta'sir qilinishi avlodlarimizga qadimdan ma'lum. Vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan kuy-qo'shiqlar bunyodkorlik, xalq xizmati yo'lida bel bog'lab xormay-tolmay mehnat qilishga undasa, yovuz niyatli dushmanqa qarshi kurash kayfiyati bilan bitilgan musiqa kattayu-kichikda beqiyos kurashchanlik tuyg'usini kuchaytiradi.

Yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilishda musiqiy ta'lim mazmunida xalqning milliy ruhi, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, urf-odatlarini o'zida ifodalagan milliy musiqa asarlarini ijro etishda o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularda o'qish va milliy musiqiy asarlarga qiziqishni o'stirish, ularda havas uyg'otish, bularni barini amaliyotda maxsus metodika asosida sinab ko'rish orqali amalgalash lozim. Bu borada musiqiy ta'lim muassasalarida yakkaxon konsertlar, jamoaviy konsertlar, sind konsertlar, hisobot konsertlar hamda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi konsert ijrolari samarali natija ko'rsatadi. Yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda hamda yoshlarni milliy qadriyatlarimizga sodiq farzandlar qilib tarbiyalashda joylardagi turli to'garaklarni ham o'rni beqiyos hisoblanadi.

Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini topgan. Ulamolarimiz bergen ta'riflardan biriga ko'ra, musiqa – inson ruhining ozig'idir[18,105]. Shu bois, milliy musiqamiz o'tgan asrlar bardavomligida ajdodlarimiz bizga qoldirgan boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining ohanglardagi jonli ifodasi va yangi davlat bunyodkor bo'l mish jamiyatimizning ruh quvvati, jonga oro beruvchi ozig'idir. Musiqa hayratli va takrorlanmas hodisadir. U kishilarni ma'naviy boyitadi, inson hayotiga alohida ma'no va mazmun kiritadi.

Mazkur musiqiy asarlarni talaba-yoshlar ongiga etkazishda o'zbek xalq cholg'ulari orkestri o'ziga xos vazifani bajarib kelmoqda.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri tashkil qilinishidan avval, ma'lum bir xalq cholg'ular asosida o'ziga xos musiqiy ansamblar tashkil topgan. Ular o'zining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan. Ana shu o'ziga xoslik tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobuz kabi sozlar an'anaviy shakllarda bizgacha etib keldi.

Orkestr – yunoncha so'zdan olingen bo'lib, teatrda sahnaning old maydonchasi degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, orkestr – turli musiqa cholg'u asboblarini chaluvchilardan tuzilgan va ular uchun yaratilgan asarlarni birgalikda ijro etuvchi sozandalar jamoasi hamdir.

Orkestr ijrosi orqali taralgan musiqa to'laqonli jozibali va har tomonlama mukammal bo'lib, yoshlarning musiqiy tafakkurini yanada rivojlanishiga yordam beradi. Ijro qilinayotgan tovushlarni idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yakka cholg'ulardan eshitilgan yoki ansambl ijrosidagi musiqalarga nisbatan orkestr orqali eshitilgan musiqa o'rtasida katta farq bor. Chunki orkestrning o'z ichki imkoniyatlari, ya'ni diapozonining kengligi, turli tembrlari uyg'unlashgan cholg'ularning musiqa xarakterini va

PEDAGOGIKA

mazmunini bastakor istaganidek qilib ifodalab berishi yuqoridagi fikrimiz dalilidir. Orkestr qatnashchisi esa ko'povozlik va ansambl bo'lib bir-birini eshitib chalishga, ya'ni hamkorlikka o'rGANADI. Boshqacha qilib aytganda orkestr jamoatchilikka hamjihatlikka o'rgatadi.

Orkestr yoki ansambl jamoasi bo'lib ijro etish murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqa darslarida orkestr yoki ansambl fanlari o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyasi uchun o'qitishning eng samarali shaklidir. Orkestr bo'lib kuy ijro etish talabalarning e'tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nota o'qish qobiliyatlarini, musiqiy savodxonligini o'stiradi. Chet el kompozitorlarini kuy va asarlarni ijro etganda boshqa xalqlarni ruhiyati ularni yashash turmush tarzi, madaniyatidan bohabar bo'ladi.

Orkestr mashg'ulotlarida talabaning diqqat-e'tibori, faolligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o'rgangan kuylarini ijro etganda zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Asar ijrosida ijodiy-ijrochilik hamkorlik kuchayadi va do'stona jamoaga birlashadi. Asarni ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va kuy mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamoaviy ijro, ya'ni orkestr, xor, ansamblarda ijro etuvchilar orasida jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilish ko'rsatkichlari ikki barobar kam qayd etilishi ta'kidlanadi. O'rganishlar natijasida shunga amin bo'ldikki, agarda orkestr va xor jamoalariga yoki turli ijodiy to'garaklarga aholining atigi 5 foizi qamrab olinganda ham mamlakatning umumiy madaniy darajasi keskin oshishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Orkestr, ansambl va xor jamoasida ijro etish yoshlarning chekish, spiritli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilish, ijtimoiy zo'riqish darajasini pasaytirish imkoniyatiga ega. Shu bois san'atning bu turlari bugungi kunda qator davlatlar, jumladan AQSH, Germaniya, Avstriya, Rossiya, Italiya, Shvetsiya, Chexiya, Vengriya, Janubiy Koreya, Xitoy, Indoneziya, Malayziya va Vietnamda keng rivoj topib bormoqda.

Orkestr ijrosi orqali talaba-yoshlarda jamoa bilan ishslash, ko'pchilikni hurmat qilish, o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini o'rganish orqali xalqlar bilan madaniy hamkorlik, do'stlik, birodarlik, insonparvarlik ruhida ijtimoiylashish kabi fazilatlar rivojlanadi.

O'zbek musiqa san'ati namoyondalari, qo'shiqchilar, xalq ansamblari turli mamlakatlarda o'z mahoratlarini muvaffaqiyatli ko'rsatib kelmoqda. Ularning joylardagi chiqishlari tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Ma'lumki, dunyodagi barcha narsa o'zgaradi va rivoj topadi. Shunga ko'ra, "san'atning milliy o'ziga xosligi" tushunchasining mazmuni ham takomillashdi. O'zbek xalq musiqa san'atining boyish jarayoni ko'p qirrali va murakkab hisoblanadi. Masalan, o'zbek opera va balet janrining paydo bo'lishi O'zbekiston musiqa madaniyatining yuksak darajaga erishganini bildiradi. Zamonaviy o'zbek musiqa san'atimizning shakli va mazmuni ham boy va ko'p qirralidir. O'zbek kompozitorlari va bastakorlarining asarlarida milliy, klassik, xalq og'zaki ijodi va zamonaviy ko'p ovozli san'atni birlashtirgan.

O'zbekiston va Sharq xalqlarining mumtoz musiqa madaniyati, maqomot dunyosi atroficha o'rganilib, xalqaro forumlarda ilmiy tadqiqotlar shaklida tahlil etilib, olamshumul masalalar sifatida e'tirof qilinib kelinmoqda. Jahonning ko'pgina musiqiy kollej va oly ta'lim muassasalarida maxsus fan sifatida dasturga kiritilgan. Jumladan, Respublikamizning OTMlari tizimidagi musiqiy ta'lim yo'nalishlarida maxsus fan sifatida talabalarga bilim berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzoyevning muktabdagagi musiqa fani o'qituvchisi musiqa sozlaridan uchta sozni chala bilishi kerak degan takliflari hamda maqom san'atini muktab jarayoniga kiritish degan fikrlari yosh avlodni musiqiy tafakkurini shakllantirishda hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ularni vatanga sodiq, ahloqi pok, hayoli, iboli, komil inson etib voyaga etkazishda dasturil amal vazifasini o'taydi.

XULOSA

Shuni aytmoqchimizki, ayrim yosh ijrochi va guruhlarning asarlari, ijro usullari, sahna harakatlarida ajnabiy ommaviy madaniyat ko'rinishlariga taqlid qilish, odob-ahloq qoidalariga mutlaq to'g'ri kelmaydigan kliplar, talaffuzni buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ko'rib, yoshlarning yulduzlik kasaliga chalinayotganligi, engil-elpi ohanglarga o'rganib qolishsa, bora-bora ularning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, ma'naviy olamni soxta tushunchalar egallab olishi mumkinligi, bunday hol o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining nochor holga tushishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu ko'rinishlar yoshlari musiqiy tafakkurining salbiy jihatlaridir. Fikrmulohazalarimizdan ayon bo'ladiki, musiqa, inson ruhiyati timsoli, go'zallik va joziba, ma'naviy hurnlik ramzi o'laroq, barcha zamonlarda ezunglikka xizmat qilib kelgan. Toki insonning haqqa,

haqiqatga mehr-muhabbati, komillikka ishqil bor ekan, uning ruhiyatidagi sog'lom sezgilar barqaror ekan, musiqaga ishtiyoqi ham aslo so'nmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliv majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020-yil 25-yanvar
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. –T.: O'zbekiston. NMIU. 4-tom. 2020. –B. 344
3. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.-Toshkent.: 2022-yil 2-fevral.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022. 280-b
5. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022. 280-b
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.. –T.: O'zbekiston. NMIU: 2-tom. 2018.-B.448
7. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat. 2008. –B. 140
8. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" –T.."Ma'naviyat, 2009, 143-bet.
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.; O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2003. 6-tom.-B. 145
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2020. 4-tom. –B.373.
11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2002.3-tom. –B.200.
12. Chindovul – o'zbek va tojik xalqlarida dubulg'a shaklidagi, bir tomoni teri bilan qoplangan urma cholg'u. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 9-tom. 2005. –T.: -B. 623
13. X.Nurmatov. N. Yo'ldosheva. O'zbek xalq musiqa ijodi. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2017. 3b.
14. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Evropa falsafasi. –T.: Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaaniyasi Bosh tahririyati. 2003. –B.112
15. O'zbekiston san'ati. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2001. 105-b.
16. Kant I. Kritika sposobnosti sujdeniya. Muzyskalnaya estetika Germanii XIX veka. T.1.-M.: 1982.-S.78
17. Shopengauer A. Svoboda voli i nравственность. –M.: 1992. –S.56
18. Tafakkur jurnali. Feruza Asqar. Sirli Munojot. Toshkent 3-son 2000 y. 42-43bb.
- 19.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2002.3-tom. –B.200.